



## O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA MUTAL BURXONOV IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Shahlo Isaqova*

*Farg'onan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi "Xor dirijyorligi" bo'limi  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mutual Burxonovning ijodi yo'li, opera va xor ijodi, Mashhur "Alisher Navoiy qasidasi" xor sahnalari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Avesto, Burhonna, Navo, Sarahbor, xor sahnalari.

O'zbekistonda musiqani rivojlantirish, opera va xor san'atiga bo'lgan qiziqishni Musiqa va san'at maktablarida dolzarb masalada aylanmoqda. O'quvchilarda dastlabki opera tushunchalarini xor adabiyoti fanida chuqurroq va albatta kengroq bilim berish. Opera janri orqali o'quvchilarga shu shoir haqida kengroq ma'lumot berish. O'zbek xorlari qadim asrlardan buyon vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi yozilgan "Avesto" kitoblarida ham bir qancha ma'lumotlar berilgan. O'zbek xorlari haqida uncha katta tushuncha bo'lmagan. Ular oldin yakkaxon, ikki kishi bo'lib ijro etilgan. Ashullalar nomi "Alla", "Yor-yor" har xil marosimlarga bag'ishlangan musiqiy qo'shiqlar bo'lgan. Rivojlangan sari xor jamoalar vujudga kela boshlagan. Faqat xor jamoalar unison bo'lib, sekin astalik bilan, kuylar edilar. Keyinchalik ovozlarni bo'lib kuylashlar boshlandi.

O'zbek musiqasi haqida buyuk allomalarimiz Abu Ali Ibn Sino, Forobiy, Beruniy o'z qo'l yozmalarida yozib qoldirganlar. Shundan ma'lumki bizning musiqiy ongimiz qadim davrlardan rivojlanib kelmoqda. Masalan; To'ylarda aytiladigan "Yor-yor", ekinlar haqida "Yomg'ir chaqirish", "Alla", "Aytishuv", "Lapar" kabilar shular jumlasidandir. Bu qo'shiqlar hozirgi kunda kompozitorlarimiz yangicha ko'rinishda qayta ishlamoqdalar. Xor asarlarini V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Miranov, R.M.Glier, G.A.Mushel, S.N.Vasilyenko, A.F.Kozlovskiy va boshqa bastakorlar asoschilari va targ'ib qiluvchilardir. Bu yil



Mutal Burxonovning tavalludiga yuz yil to‘lishi munosabati bilan san’at va madaniyat sohalarida ijod etayotgan, tehsil olayotgan va ish faoliyatlarini olib borayotgan kishilar joylarda kompozitorning yubleylarini nishonlamoqdalar. Zero benazir kompozitorning xotirasi va so‘nmas asarlari umirbot abadiy yashab kelmoqda. Kelgusi avlodlar ham bundan albatta baxramant bo‘lishlariga ishonch bildiraman. Mutal Muzayyinovich Burhonov 1916-yil 5-mayda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Burhonovning musiga bo‘lgan qiziqishi yoshligidan boshlangan amakisi unga tanbur sozini olib bergen. Keyinchalik Otaniyoz Abdulg‘aniyevichdan tanbur cholishni o‘rgangan.

Burxonov 1928-1932 yillarda Samarqand musiqa va xoreografiya institutida, 1939-1941 va 1946-1949 yillarda esa Moskva Konservatoriyasida ta’lim olgan, Grigoriy Stolyarovdan dirijyorlik bo‘yicha saboq olgan. Kompozitor ijodida vokal musiqasi, ayniqsa, romans, jo‘rsiz xor va vokal-simfonik janrlar asosiy o‘rin tutadi. “Tabassum qilmading”, “Namedonam Chi nom dorad”, “Ishqida” va boshqa romanslari, “Alisher Navoiyga qasida” (Abdulla Oripov, 1968-yil) va boshqa Sharq xalqlari qo‘shiqlarini jo‘rsiz xor uchun mahorat bilan, milliy musiqaga xos nafislik va jozibalikni to‘la saqlagan xolda qayta ishlagan. U talabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir A. Lohutiy she’rlariga bastalangan “Ey bulbul” romansi va “Buti nozaninam” (“Mening go‘zalim”) qo‘shig‘idan va Mashrab she’riga “Ishq o‘ti”, yakkaxon va simfonik orkestr uchun bastalangan balladasi kabilardan boshladi. Urush yillari “Jangchilar qo‘shig‘i” (Uyg‘un so‘zi), “Samalyot” (H.Olimjon so‘zi), “Uchib ketasan” (Z.Diyor so‘zi), “Paxta ochilsa” (Kamtar so‘zi) qo‘shiqlar, “Ishqda” (Uyg‘un so‘zi), “Dilbarimo” (A.Lohutiy so‘zi) romanslar paydo ulug‘ farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fayzulla Xojayev, kompozitorlarning katta akasi Misboh, ammakilari Masxariddin, Mukammil va Muammir Burxonovlar xotirasiga bag‘ishlangan. Bu asar 1996-yil 14-mayda “Turkiston” saroyida kompozitorning yubiley kechasiga bag‘ishlangan konstr dasturida ilk bor ijro etildi. S.Qobulova, F.Zokirov, badiiy so‘z ustasi T.Mo‘minov, A.Abduqodirov, Z.Haqnazarov raxbarligidagi milliy simfonik orkestr, xormeysterlar A.Hamidov va J.Shukurovlar rahbarligidagi qo‘shma xor jamoalari qatnashgan edi. 1998-yil “ Ko‘ngil xazinasi (Burxonoma)” kitobini yozgan bastakor 2002-yil 15-



iyunda 86- yoshda vafot etdi. Mutal Burxonovning “Alisher Navoiy” qasidasi asari musiqasi Mutal Burxonov so‘zi, Abdulla Oripovga mansub. Ushbu musiqaning asosiy mavzusi muallif Navoiy ismi bilan yaratilganligi bois ushbu hikmatlar g‘azallardan sherkardan foydalangan. Alisher Navoiy ko‘z o‘ngimizda gavdalanar ekan, biz ul zotni buyuk inson, shoir, mutaffakir sifatida yaxshi bilamiz. Bunda kompozitor Burxonov gavdalanishini mukammal darajada kuyini bastalangan. Kuyda ko‘tarinki kayfiyat, kuchli ma’no falsafiy qarashlar ohanglar rahbarangligiga, dinamik belgilarning ko‘p ishlatilishi, asarni yanada tantanali ohanglar rangbarangligiga, dinamik belgilarning ko‘p ishlatilishi, asarni yanada tantanali ohanglar bilan namoyon etadi. Asarning ruhiyati, musiqa va so‘zлari mohiyati shunchalar jipslashganki, uni eshitganda, yoki ijro qilganda, ko‘z o‘ngimizda albatta Alisher Navoiyning timsoli yorqin namoyish bo‘ladi. Asarning bosh qismi orkestrda birinchi navbatda birdan keng arpedjio akordlari bilan asosiy qismi boshlanadi. Bu akordlar musiqada tantanali va falsafiy hayot haqidagi dunyo qarashlar, chuqur fikrli, mukammal bir ma’noga ega ekanligidan. Ushbu asar melodik struktura va tanal- garmonik sifatida yozilgan. Navoiy mavzusi kuylangandan so‘ng, undan keyin mayin –tertsiya tepada keng akordlar chalinad. Asar 3 qismli keng sunitrik shakllga ega bo‘lib. Asar davomida xor (og‘zi yumshoq) holda unison bo‘lib kuylashni boshlaydi. Kuyning o‘zi oddiy bo‘lishga qaramay, yorqin hamda g‘amli ohang taratadi. Bu ohang odamni o‘ziga jalb qiladi.

4-taktda “Navo” maqomidan “Sarahbor” qismi yangrab o‘tadi. Borgan sari rivojlanish natijasida avjda qarab yo‘naltirildi. Bu maqomda kompozitor tomonidan xorda unison qilib kuylashni xorga topshiradi. Yakkaxon ham ular bilan og‘iz yumilgan holda birga kuyladi P P ga P biroz ovozlarga kuch berib yana P P qaytamish. Orkestrdaakkordlar alt va bassda kichik aytishuv bilan kuylanib, uni soprano va tenorlar davom ettiradi. Shu orqali qamrab olingen tovushlar Navoiyga yo‘naltirilgan. Uning natijasida bariton yakkaxonni kuylaydi. Yakkaxon-alt va basslar bilan, ulug‘ shoir so‘zlarini ijro qiladi mf dinamikasida U aks sado bo‘lib uchta ppp da Ulug‘ shoir deb takrorlanadi. 6 takitdan iborat bu aytishuv, ulug‘lik, buyuklikdan darak beradi. Sinkopa usulidagi, bu richitativ xarakterga ega, 1 chi bo‘limda aytib o‘tilgan orkestrdagিakkordlar kengligi, Navoiy mavzusi, maqom shaklidagi xorning tuzilishi,



xor guruhining bir-biridan so‘ng replik (aytishuv) uslublari, Bariton sozlashuvi (rechetativ) natijasida bu qism to‘la bir katta pralogni tashkil qiladi. 2 chi o‘rta qism o‘ziga aniq va ravshan kontrollikni nomoyon qiladi. Yangi mavzu bu yerda paydo bo‘ladi. Templer almashuvi Allergreto, Andante o‘rni; o‘lchovlar 3.4 2.4 O‘rniga; tonalniklar lya major o‘rni. Biroz qatiyatlikdan chekingan xolda, o‘rta qismni jonlantiradi. Unda ikki takid tayyorgarlik ko‘rish uchun orkestrga beradi. So‘ng mp dinamikasida, noming eslar Vatan so‘zlari bilan mf dinamikasigacha kuchayib boradi so‘ng yakkaxon p dinamikasida “Xush keldingiz yillar oshib”, so‘zlari bilan davom etadi, uning davomida, soprano va alt “Yillar oshib” deb to‘ldiradi. 12 ta takt yordamida davom etkan kuy, asta sekinligi, p dinamikasi yordamida ayollar va erkaklar xori qo‘silib, kuyni rivojlantirib, avjiga olib keladi. Ko‘rib turibmizki xar bir qismda avj pardalarga xos kuy taralmoqda. Kompozitor va maxorat bilan buni ko‘rsatib bera olgan. Asar davomida nafaqat maqom balki aftorning maqol va naqllaridan chiroyli foydalangan.

So‘ngi qimlarda tugallanishi “Sharof” so‘zi kuy bilan oxangdosh bo‘lib bir necha bor bu so‘zga urg‘u berib takrorlaydi. Bu so‘zidan ko‘rinib turibdiki, shoirning ulug‘ insonligi, uning tafakkuri, ongi xurmati shu darajada ulug‘ va buyukki, xatto kompozitor Burxonov major ladda asarni yaratdi. Chunki major lad, u oddiy yorug‘dir. Asarni eshitganimizda o‘ziga hos harakter va buyuk inson taqdiri namoyon bo‘ladi. Kompozitorimiz bejizga emas Abdullo Oripov bilan birga ijodlarini birlashtirmagan, chunki ko‘plab asarlarining she’rlarini Abdullo Oripov yozgan. Ularning ham ohangligi, birgalikda ko‘zlagan maqsadlari bir edi. XXI- asrga kelib O‘zbek musiqasining ko‘rinishi o‘zgardi, yangicha tus oldi. Uning azaliy urf- odatlari qatoriga yangi asarlar va uslublar qo‘sildi. Sharq va G‘arb an’analari uyg‘unligida yangi uslub hamda yo‘nalishlar yuzaga keldi. Shu bilan birga O‘zbek kompozitorlik maktabi shakllantirildi. Ushbu maktabning munosib vakillari Mutal Burxonov, Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiyev va Ulug‘bek Musayevlarning asarlari O‘zbek musiqasini jahonga tanitdi. O‘zbek xalqi va jahon xalqlari qalbidan joy olgan yorqin asarlar muallifa Mutal Burxonovdir. O‘zbekiston Davlat madxiyasi, Davlat ramzlaridan birini yozganligi uning tanlanganlar ichida tanlangan, tengsiz ekanligini bildiradi. Mutal Burxonov



O‘zbek xalqining milliy iftihori, jahonda o‘zbek musiqasining yorqin sahifasi. Uning asarlari qadri- qimmati yil sayin ortib bormoqda. 2016-yil kompozitorning 100 yilliligiga bag‘ishlangan tadbirlar yurtimizning barcha ta’lim, san’at va madaniyat muassasalarida o‘tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda Mutal Burxonovning asarlari qayta jonlanmoqda va yangi avlodga uning ijodiy merosi tanishtirib borilmoqda. Mutal Burxonov kabi ijodkorlar xalqimiz ardog‘ida.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi
- 2.Yanov-Yanovskiy “Matal Burxonov”
- 3.Y.A.Gudkova o‘zbek xor adabiyoti
- 4.B.V.Shomahmudova- “Xor lug‘ati”